

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
v.b dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi

va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ravshanova Shabnam Qosim qizi

<https://orcid.org/0009-0003-1784-8606>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik tizim tuzilmasi, mazmuni va rivojlantirishning tashkiliy omillarini qanday amalga oshirish haqida so'z boradi. Kasbiy kompetensiya tushunchasi hamda uni rivojlantirish yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar kompetensiya, taraqqiyot, kasbiy, intellektual, kompetentlik, pedagogik, innovatsion, raqobatbardosh.

Abstract. This article discusses the structure of the methodological system for developing professional competence of future primary school teachers, its content and how to implement organizational factors of development. The concept of professional competence and directions of its development are highlighted.

Keywords: competence, development, professional, intellectual, competence, pedagogical, innovative, competitive.

Bugungi globallashtayotgan, tez o'zgarayotgan ta'lim muhitida boshlang'ich bosqichdagi ta'lim sifati – jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy omili oliy ta'lim sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Shu tufayli, zamonaviy pedagogik ta'lim imkoniyatlaridan va yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish

dolzarb vazifalardan biri ekanligini aytishimiz mumkin. Shu munosabat bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy ta'lim muassasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Kompetensiya so'zi lotincha so'z bo'lib "competo" - erishyapman, loyiqman, munosibman kabi ma'nolarni anglatadi. Kompetensiya mutaxassis tomonidan bilimlarni doimo rivojlantirib, takomillashtirib borishi, yangi axborotlarni egallashi, ijtimoiy munosabatlarni chuqur anglashi, kundalik ma'lumotlarni qidirib topish, ularni faoliyatda qo'llay olishni taqozo etadi. Ayniqsa boshlang'ich bosqichda faoliyat yurituvchi o'qituvchi – nafaqat dars beruvchi, balki tarbiyachi, tashkilotchi va yetakchi sifatida ham mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish – ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Kasbiy kompetensiya deganda o'qituvchining professional faoliyatda o'z vazifalarini samarali, ijobiy va etik jihatdan bajara olishi uchun zarur bo'lgan bilim-ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar va munosabatlar majmuasi nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun pedagogik, metodik, shaxsiy, ijtimoiy va raqamli kompetensiyalar muhim hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va kasbiy yuksalishi bevosita uning ijodiy qobiliyatiga bog'liq. Odatda, pedagoglarning ijodiy qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari hamda samarali pedagogik muloqotni amalga oshirishi orqali ta'minlanadi. Samarali pedagogik muloqotni amalga oshirish-o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik faoliyatdagi muloqot ta'lim muammolarini hal qilish, o'quv jarayonini ijtimoiy-psixologik ta'minlash vositasi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usuli bo'lib, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, ta'lim jarayonini rejalashtirish va baholash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, o'z ustida muntazam ishlash, psixologik bilimlarga ega bo'lish hamda o'z fanini mukammal bilish kabi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi kerak. Kasbiy kompetensiyani shakllantirib borishda inson avvalo o'z ma'naviyatini namoyon qilib olishi zarur, ya'ni kasb ma'naviyati mavjud bo'lgan har bir o'qituvchida pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya rivojlanib boradi. Kasb ma'naviyati ham tezda shakllanadigan jarayon emas. U ma'lum bir vaqt, tinimsiz o'zlashtirilayotgan ilm, tajriba va ko'nikmalar asosida shakllanib boradi.

Bo'lajak o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish: darsni rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, baholash mezonlarini ishlab chiqish.
2. Axborot-kommunikatsion kompetensiyalar: raqamli vositalardan foydalanish, onlayn platformalarda ishlash.
3. Ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar: jamoa bilan ishlash, mas'uliyat, ijodkorlik va o'zini rivojlantirish.
4. Refleksiv kompetensiyalar: o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklardan saboq chiqarish, o'zini o'zi baholash kabilar.

Bundan tashqari, o'qituvchining kasbiy rivojlanishining muhim omillaridan biri bu - individual rivojlanish dasturi. Ushbu dastur - har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida u yoki bu sifat, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, takomillashtirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqilgan shaxsiy dasturi. Bu dasturda o'qituvchining o'zida shakllantirishi, takomillashtirishi zarur bo'lgan sifat, BKM ni shakllantirish, amaliy faoliyat turlarini tashkil etish, tanlangan metodlar bo'yicha o'z ustida ishlash uchun belgilangan muddat aks etadi. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlash jarayonida o'z bajargan ishlari va faoliyatidagi kamchilik va yutuqlarini tahlil qilishi hamda yutuqlarini boyitib, kamchiliklarini yo'qotish haqida aniq qaror qabul qilishi, qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borishi zarur. Ushbu faoliyatini to'g'ri olib borish jarayonida mutaxassis kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich ravishda rivojlantirib boradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv kuchaytirilmoqda. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida talabalarga metodik tayyorgarlik, raqamli savodxonlik, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va pedagogik amaliyotlar asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli, mamlakatimiz ta'lim tizimida quyidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda:

- dasturlarni kompetensiyalar asosida qayta ishlab chiqish.
- nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish.
- mentorlik tizimini kuchaytirish.
- baholash tizimini kompetensiyaviy asosda tashkil etish.
- doimiy kasbiy rivojlanish madaniyatini shakllantirish.

Bu jihatlar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etishning muhim tarkibiy qismlaridir. Dasturlarni qayta ishlash orqali nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, mentorlik tizimini kuchaytirish, baholashni kompetensiyaviy asosda tashkil etish hamda doimiy kasbiy rivojlanish madaniyatini shakllantirish zamonaviy kasbiy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu yondashuv talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashga qaratilgan.

Dasturlarni kompetensiyalar asosida qayta ishlash: O'quv dasturlari amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalarga yo'naltirilgan holda ishlab chiqiladi. Bunda talabalar nafaqat nazariy bilimni, balki amaliy masalalarni hal qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda, nazariya va amaliyotning birligi tamoyili amalga oshadi. Bo'lajak o'qituvchilar har tomonlama o'z tajribalarini oshirib boradi.

Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish: O'quv jarayonida nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar, loyihalar, amaliyotlar bilan birgalikda olib boriladi, bu esa talabalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bunga misol qilib hozirgi kunda oliy ta'lim tashkilotlarida amalda qo'llanayotgan 4+2 dasturini olishimiz mumkin. Bu dastur talabalar uchun har tomonlama qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Mentorlik tizimini kuchaytirish: Tajribali xodimlar (mentorlar) yangi xodimlarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashadi. Bu esa o'rganish jarayonini tezlashtiradi va sifatini oshiradi. Hozirgi vaqtda barcha maktablarda haftada bir kun kasbiy rivojlanish kuni deb belgilab qo'yilgan, aynan mana shu kunda mentorlar tomonidan barcha o'qituvchilarga yangi bilim va metodlarga boy darslar o'tib beriladi.

Baholash tizimini kompetensiyaviy asosda tashkil etish: Talabalarning bilim darajasi hamda amaliy ko'nikmalari doimiy ravishda baholanadi. Bunda baholash tizimi muayyan kompetensiyalarga asoslanib, o'quvchining muvaffaqiyatini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Doimiy kasbiy rivojlanish madaniyatini shakllantirish: Xodimlarni doimiy ravishda o'qishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga va kasbiy jihatdan rivojlanishga undash orqali kasbiy rivojlanish madaniyati shakllantiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining maqsadi ularning psixologik tayyorgarligini professionalashtirishdir, bu psixologik bilimlarning roli va mazmunini tubdan o'zgartirishni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchi uchun yagona, professional jihatdan mazmunli rivojlanish makonida ta'limning barcha boshqa jihatlari bilan integratsiya qilinishi kerak. O'quvchilar ushbu integratsiyalashgan tarkibni o'zlashtirar ekan, ular maxsus faoliyatni - o'rganish va professional faoliyatni rivojlantiradilar, bunda asosiy ustuvorliklar asosan rivojlanishni (ta'limda bolalarning aqliy rivojlanishi) o'rganish bilan bog'liq bo'lib, nafaqat axborot qobiliyatlarini, balki o'rganish bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning bunday faoliyati tegishli darajadagi professional kompetensiyani rivojlantirishni ta'minlaydi, bu o'quv jarayonida bolalarning aqliy rivojlanishining maqsad va vazifalarini bashorat qilish, ushbu maqsadlarga erishish uchun samarali psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratish, diagnostika dasturlarini (shu jumladan, fan materiallariga asoslangan) ishlab chiqish va turli o'quv muhitlarida boshlang'ich maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish qobiliyatida namoyon bo'ladi. "Professional o'qituvchi kompetensiyasi" atamasi zamonaviy boshlang'ich maktab o'qituvchisi ishining pedagogik va metodologik tarkibiy qismlarini o'zgartiradigan va ularning ko'p qirrali professional faoliyati uchun imkoniyatlar yaratadigan psixologik tayyorgarlikka asoslangan professional integrativ birlikni anglatadi. Bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarida universitetda o'qish davomida kasbiy kompetensiyaning paydo bo'lishi va samarali rivojlanishi uchun uning motivatsion, mazmun-faoliyat va diagnostika-tartibga solish komponentlari uyg'un holda rivojlanadigan maxsus sharoitlarni yaratish zarur. Bundan tashqari, yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining chuqur, moslashuvchan va professional yo'naltirilgan psixologik tayyorgarligiga asoslanganligi sababli, biz uning rivojlanishi uchun eng samarali sharoitlar maxsus yaratilgan integrativ ta'lim mazmuni tizimlari deb hisoblaymiz. Biz integratsiyani turli elementlarni yagona, sifat jihatidan yangi mavjudotga birlashtirish, qandaydir birlikni tiklash sifatida ko'rib chiqamiz. Bu qismlarning mexanik bog'lanishi emas, ularning yig'indisi emas, balki yangi natija, yangi tizimli va yaxlit shakllanishni keltirib chiqaradigan organik o'zaro bog'liqlikdir. Tizimlar nazariyasida integratsiya tizimning alohida komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik holati va bu holatni belgilovchi jarayon sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – bu o'qituvchining nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, raqamli savodli, tarbiyaviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, o'qituvchining butun faoliyati davomida davom etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassis davr talabini chuqur his etadi, yangi bilimlarga intilib, topib, ularni qayta ishlab o'z amaliyotida samarali qo'llaydi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kasbiy kompetensiyasi shakllangan nafaqat boshlang'ich sinf o'qituvchilari balki barcha fan o'qituvchilari ham ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining faolligi, yaratuvchanligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan pedagogik jarayonni milliy o'quv dasturi asosida to'g'ri tashkil qiladi hamda davomli ravishda o'zini o'zi rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003. - 147 bet
2. Yuldashev S.N, Imomov M.P Pedagogik mahorat / o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi" , 2023.
3. Omonov B.N. Kasbiy ma'naviyat / darslik. - Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2024. - 260 bet
4. N.A. Muslimov. Q.M. Abdullayeva Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 128 bet.

